

## **SANOAT TARMOQLARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KADRLARNI TUTGAN O‘RNI**

**Komolov Sadriddin Xayriddinovich  
USAT “Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi**

Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsiyalar va fan sig‘imi yuqori bo‘lgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish asosida, uning yuksalishi va o‘shirishini ta‘milash muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan isloh etish jarayonida ta‘lim sohasida jahonda munosib o‘rinni egallashga qaratilgan yangi uluksiz ta‘lim tizimini yaratish ustivor vazifalardan biri sifatida belgilanadi. Innovatsiya ilmiy-texnika taraqqiyoti yo‘nalishlaridan biri sifatida respublikadagi ta‘lim darajasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

**Innovatsiyalarni joriy etish korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligi va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatni saqlash hamda rivojlantirish yuzasidan bir qator maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.**

Ma‘lumki, mamlakat raqobatdoshligini baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra, tabiiy va iqlim resurslaridan oqilona foydalanish, jamg‘arilgan boyliklarni o‘z o‘rnida ishlatish, iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan boshqaruv siyosatini amalga oshirish kabi omillar rivojlanishning asosiy strategiyasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot va bozor ehtiyojlari mahsulot nomenklaturasi va sifatiga yangi talablarni shakllantirgan holda, talab va taklif kon‘yunkturasida muhim o‘zgarishlar yuz berishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish faoliyatining deyarli barcha sohalarida innovatsiyalarga istiqbolli rivojlanish vositasi sifatida qiziqish yanada oshadi. Korxonalarni boshqarish amaliyotida bunday strategiyaning shakllanishi innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish tizimlarini yaratish zaruriyatini yanada kuchaytiradi.

Innovatsiyalarni keng yoyish -axborot jarayoni bo‘lib, uning shakli va tezligi kommunikatsiya kanallarining quvvati, xo‘jalik sub’ektlari tomonidan axborotni qabul qilish xususiyatlari, ushbu axborotdan amaliy foydalanishga bo‘lgan qobiliyat va hokazolarga bog‘liq. Chunki real iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub’ektlarining innovatsiyalarni izlashga bo‘lgan munosabati va ularni o‘zlashtirish qobiliyati turlicha bo‘ladi.

Hozirgi kunda xalqaro ilmiy-texnik va savdo munosabatlarining rivojlanishi ko‘pgina mahsulotlar bozorining globallasuvi, xalqaro mehnat taqsimoti hamda turli alyanslar va qo‘shma korxonalar yaratilishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, “inson resurslarini” boshqarish innovatsion siyosatni amalga oshirishning so‘nggi bo‘g‘ini bo‘lib, samaradorlik va ish sifatini oshirish masalalarini hal etishga xodimlarning keng doirasini jalb etishni taqozo etadi.

Qaysi bir davlat eng samarali innovatsiyaviy mexanizmga va innovatsiyalarni

amalgga oshirishning rivojlangan infratuzilmasiga ega bo'lsa, aynan shu davlat jahon bozoridagi raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishadi. Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyotning bir qismi sifatida e'tirof etiladigan ilmiy-texnik innovatsiyalar - iqtisodiyotni jonlantiruvchi va uning raqobatdoshligini saqlab qoluvchi kuch hisoblanadi.

Innovatsiyaviy faoliyatni rivojlantirish uchun tarmoq infratuzilmalarining katta imkoniyatlari mavjud ekanligini anglagan holda rivojlangan davlatlar hukumatlari innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni davlat siyosati darajasida amalga oshirmoqdalar. Xitoy, Germaniya, Fransiya, Isroil, Hindiston, Rossiya kabi iqtisodiyoti taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlar inson manfaatlariga xizmat qiladigan innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqib, amalga tatbiq etib kelmoqdalar.

Jahon intellektual mulk tashkiloti qator hamkor tadqiqot markazlari bilan birgalikda mamlakatlarning innovatsion rivojlanishiga doir reytingda Shveysariya yetti yildan beri yetakchilik qilib kelmoqda. Innovatsion rivojlangan davlatlar reytingining kuchli o'rnligidan shuningdek, Singapur (7), Finlandiya (8), Germaniya (9) va Irlandiya (10) mamlakatlari o'rin olgan. Osiyo qit'asidan yetakchilar - Singapur (7), Janubiy Koreya (11) va Yaponiya (14) hisoblanadi [2].

Mamlakatimizda ham innovatsion loyihalar va texnologiyalarni amalga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Birinchi Prezidentimizning 2008 yil 15 iyulda qabul qilingan "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 916-sonli qarori O'zbekistonda innovatsion taraqqiyot jarayonlarini yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Shunisi e'tiborliki, bu borada yoshlar alohida jonbozlik ko'rsatib, ilm-fan olamiga o'z loyiha va ishlanmalarini taqdim etmoqdalar.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan har bir sohaning taraqqiy etishiga qaratilgan shart-sharoitlarning yaratilishi natijasida qator imkoniyatlar, yutuqlar qo'lga kiritib kelinmoqda. Xususan, innovatsion loyihalarning joriy etilishi, bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qaror va farmonlarning qabul qilinishi soha rivoji uchun xizmat qilmoqda. 2017 yil 29 noyabrda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi PF – 5264-son Farmoni qabul qilindi [1].

Farmonda ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish prinsiplari, qo'llab-quvvatlash shakllari, g'oya, ishlanma, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishni belgilovchi "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi va "Fan to'g'risida" gi qonun loyihalari ishlab chiqish lozimligi ta'kidlangan. Ayni mana shu qonun loyihalarining ishlab chiqilishiga bo'lgan e'tibor hamda ushbu vazirlikning tashkil etilishi, albatta, sohani yanada rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni shakllantirish, ishlanma va texnologiyalarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

1. Innovatsion, amaliy tadqiqot tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirish zarur, bunda ular ko'proq fanlararo ixtisoslikka, bir qator yo'nalishlarda zaiflashib qolgan ilmiy tadqiqot institutlari tizimini yangi sifat darajasida o'rnini bosa oladigan kuchga ega bo'lishi talab etiladi.

2. Mamlakatni innovatsion rivojlantirish yo‘li innovatsion tadbirkorlikni jiddiy faollashtirishni, bu yo‘nalishda kompaniyalarni yaratish amaliyotini kengaytirishni, “innovatsion lift” deb nom olgan mexanizmlarni yo‘lga qo‘yishni ham ko‘zda tutadi.

3. Texnologik modernizatsiya korxonalar modernizatsiya “ilg‘orlari” tomonidan talab etiladigan yangicha sifatga ega mutaxassislar tayyorlashni talab etadi. Yangi kadrlar ertangi kun texnologiyalari bilan ishlashga yo‘naltirilgan bo‘lishlari lozim. Ularni tayyorlab berishni esa o‘qituvchilarni ilg‘or tadqiqotlarga jalb etmasdan, talabalarning bunday ishlarda shaxsan ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Mazkur vazifalarni yetakchi oliy o‘quv muassasalarining amaliy tadqiqot kompetensiyalarini tubdan taraqqiy etmasdan hal etib bo‘lmaydi. Oliy o‘quv muassasalari qisqa vaqt ichida kompetensiyalari va tadqiqot salohiyatlarini o‘stirishlari zarur, sababi bu ularga iqtisodiyotning real sektori kompaniyalari tadqiqot ishlarini autsoringini amalga oshiruvchi maydonga, amaliy g‘oyalar va ishlanmalar generatori, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim maydon, davlat boshqaruv organlari va kompaniyalar uchun amaliy ilmiy va texnologik qarorlarni nisbatan sifatli va nufuzli ekspertizasi uchun manbaga aylanishini ta‘minlab beradi.

Muhim vazifalardan biri, shubhasiz, «Milliy dastur»da o‘rtaga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda fan-ta‘lim va innovatsion ishlab chiqarish sohalarining bir-biri bilan uzviy aloqada ishlashini va jahon bichimidagi texnologiyalar ishlab chiqish kabi ustuvor vazifani bajarish uchun butun kuch-g‘ayratlarni safarbar etishdir. Mamlakatimizda aynan shu yo‘nalishda, ya‘ni akademiya tizimi va OTMLaridagi fan va texnika potensialini innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirish doir katta ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston ilm-fani bugungi kunda o‘zgarib borayotgan bozor talablariga javob beradigan, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan innovatsion iqtisodiyotning texnologik bazasini yaratish borasida ulkan imkoniyatlarni namoyon etmoqda. Mohiyatiga ko‘ra noyob bo‘lgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning hayotga tatbiq etilishi natijasida fundamental va amaliy tadqiqotlar, jumladan, innovatsiya loyihalari amalga oshirilishini ta‘minlaydigan akademik va oliy o‘quv yurti ilm-fanining rivojlangan sektori faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimiz ilm-fani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani samarasida yangi tadqiqot yo‘nalishlarini yaratish va mavjudlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda [3].

Xullas, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning hayotga joriy qilinishi uzluksiz ta‘limning zamonaviy O‘zbekiston modelini shakllantirdi va bu model bugungi kunda muvaffaqiyatli ravishda jamiyatimizga xizmat qilmoqda, Vatanimizning buyuk kelajagini barpo etishda asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lmoqda. Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga joriy qilish yangi avlod kadrlarini tayyorlash ishi jamiyatning bugungi, kelajakdagi talab va ehtiyojlari aniq hisobga olingan holda huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya jarayonlariga uyg‘un tarzda olib borilmoqda.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017 yil 29 noyabr. [https://kknews.uz/uz/docs\\_laws/documents/zbekcha-zbekiston-respublikasi-inn](https://kknews.uz/uz/docs_laws/documents/zbekcha-zbekiston-respublikasi-inn)
2. Samatov.U. Pirmatov J. Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Innovatsion rivojlanish, axborot siyosat va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi a‘zolari. “O‘zbekiston kelajagi – innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarda”. Adolat ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati. 2020 yil 18-son.
3. Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli. Ilmiy-ommabop risola. Toshkent-2015. 81-bet. © Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti.